

**O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**

**DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**KARIMOVA SHOIRA TURSUNOVNA**

**BOLALARDA ALALIYANI BARTARAF ETISH BO‘YICHA  
KORREKSION-LOPEDIK ISH**

**13.00.03 – Maxsus pedagogika**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent -2025**

**Pedagogika fanlari buyicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on  
pedagogical sciences**

**Karimova Shoira Tursunovna**

Bolalarda alaliyani bartaraf etish bo'yicha  
korreksion-logopedik ish.....3

**Каримова Шоира Турсуновна**

Коррекционно-логопедическая работа по преодолению  
алалии у детей.....20

**Karimova Shoira Tursunovna**

Elimination of alalia in children corrective logopedic work.....40

**E'lon qilingan ishlar ro'uxati**

Список опубликованных работ  
List of published works.....44

**O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**

**DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**KARIMOVA SHOIRA TURSUNOVNA**

**BOLALARDA ALALIYANI BARTARAF ETISH BO‘YICHA  
KORREKSION-LOPEDIK ISH**

**13.00.03 – Maxsus pedagogika**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent -2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.2.PhD/Ped 1691 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

**Dissertatsiya O‘zbekiston milliy pedagogika universitetida bajarilgan.**

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning sahifasida ([www/http.uz](http://www/http.uz)) va Ziyonet Axborot-ta’lim portalida ([www.ziyontt.uz](http://www.ziyontt.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Mo‘minova Lola Rahimovna**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Hakimova Muhabbat Fayzievna**  
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**Turg’unboev Sirojiddin Fahriddinovich**  
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Qo‘qon davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc 03/ 30.01 2020. PhD.Ped 26.01 raqamli kengashining «\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2025 yil soat \_\_\_\_\_dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27-uy. Tel.: (+99871) 256-76-51, email: [tgpu\\_kengash@edu.uz](mailto:tgpu_kengash@edu.uz))

Dissertatsiya bilan Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_ raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27-uy. Tel.: (+99871) 256-76-51

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «\_\_\_» kuni tarqatildi.  
(2025 yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_dagi .... raqamli reyestr bayonnomasi)

**Z.N.Mamarajabova**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash raisi,  
p.f.d., professor

**R. G. Isyanov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash ilmiy  
kotibi, p.f.n., dotsent

**M. E. Mamarajabov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy  
seminar raisi p.f.d., professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

Jahonda nutqida og‘ir nuqsoni bor bolalar ta‘limiga katta e‘tibor qaratilib ta‘lim olishlari uchun zarur sharoitlarni yaratish texnologiyalari amaliyotga tadbiiq etilmoqda. Defektolog-logopedlar, pedagoglar tomonidan nutqida og‘ir nuqsoni bor shaxslarni o‘qitishning meynstriming va ijtimoiy inklyuziyasi, kasbiy ijtimoiy shakllarini egallashning real tajribada mavjud muammo va istiqbollar, imkoniyatlar va to‘siqlarni bartaraf etish, bolalarga to‘liq ta‘lim berish, ularning shaxsiy imkoniyatlarini rivojlantirish bo‘yicha tizimli amaliy ishlar olib borilmoqda.

Jahon ta‘lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida bolalardagi shakllanmagan nutqni rivojlantirish harakat allyuziyasi, ekspressiv nutq assimilyasiyasining turg‘un buzilishi bilan xarakterlanuvchi tilning o‘zgarishi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bolalarda nutq buzilishlarini aniqlash, alialiyalarning tarqalganligi, etiologiyasi va tasnifi, tekshirish va ta‘lim dasturining til xususiyatlari hisobga olingan amaliy diagnostikasi va metodikasini tashkillashtirish bo‘yicha tadqiqotlarga e‘tibor berilmoqda.

Respublikamizda so‘ngi yillarda maxsus va inklyuziv maktabgacha ta‘limni innovatsion yondashuv asosida rivojlantirishning tashkiliy-metodik aspektlarini takomillashtirishning me‘yoriy asoslari yaratilmoqda. “Maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan har tomonlama rivojlantirish uchun sharoitlar yaratish, maktabgacha ta‘lim tizimiga innovatsiyalarni, ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish” ustuvor vazifalari belgilab berilgan. Natijada maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq buzilishlarini bartaraf etishning pedagogik imkoniyatlari kengaydi.

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 15 oktyabrdagi O‘RQ-641-son “Nogironligi bo‘lgan shaslarning xuquqlari to‘g‘risida”gi Qonuni,<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 1 dekabrdaqi PF-5270-son Nogironligi bo‘lgan shaslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 1 dekabrdaqi PF-5270-son Nogironligi bo‘lgan shaslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida 2019 yil 9 yanvardaqi, 2020 yil 13 oktyabrdagi PQ-4960-PF-5618-son Jamiyatda xuquqiy ong va madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida farmonlari, Alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta‘lim-tarbiya berish tizimini yanavda takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 12 dekabrdaqi 638-son Alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta‘lim berishga oid normativ-xuquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori, shuningdek, boshqa me‘yoriy- huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 15 oktyabrdagi O‘RQ-641-son “Nogironligi bo‘lgan shaslarning xuquqlari to‘g‘risida”gi Qonuni

texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-me’yoriy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq buzilishlarini bartaraf etish Z.Axmedova, M.Ayupova, Ye.Babayeva, V.Veretennikova, L.Mo‘minova, X.Po‘latova, N.Rahmonqulova, Sh.To‘xtoyarova; jismoniy va psixik rivojlanishida nuqsonli bolalardagi nutq aspektlari - D.Nazarova, X.Po‘latova, V.Rahmonova, R.Rustamova, N.Sosedova, M.Hamidova, R.Shomahmudova, F.Qodirova, G.Abdullayevalar tomonidan tadqiq etilgan.

MDH mamlakatlarida to‘g‘ri nutqni ontogenezda egallash - V.Vinogradov, A.Gvozdev, A.Zaxarova, F.Soxin, A.Leontyev, D.Rozental, G.Rozengrad-Pupko, A. Shaxnarovich, L.Sherba, N.Shvachkin; nutqi yaxshi rivojlanmagan bolalarning tovush talaffuzi - A.Markova, G.Kashe; lug‘aviy tomoni J. Antipova, Vorobyova, B.Grinspun, V.Kovshikov, R. Levina, V. Orfinskaya, V. Sobotovich, N.Traugott, L.Filicheva, G.Chirkina, S.Shaxovskaya, A.Yastrebova; grammatik aspektlar - T.Axutina, V.Vinogradov, Ye.Drozdova, G.Jarenkova, N.Jukova, R.Lalayeva, R.Levina, Ye.Mastyukova, N.Nikashina, Ye.Sobotovich, T.Tumanova, T.Ushakova, T.Filichevalar tomonidan tadqiq etilgan.

Bolalar nutqiy rivojlanishining ilmiy-metodologik aspektlarini uzoq xorij olimlari - M. Gopnik, M. Crago, Friedmann, Novogrodsky, Van der Lely, E. Fey Marc, R Raychev, S.Pentcheva, Ye.Ye.Kats, D.V.M. Bishop, R.E Mayerlar tadqiq etishgan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy tadqiqot rejasining “Pedagogik yo‘nalishlar va mutaxassisliklar bo‘yicha ilg‘or pedagogika texnologiyalarini joriy etish, pedagog kadrlarni sifatli tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, elektron ta’lim-resurslarini yaratish va takomillashtirish, o‘quv jarayoniga zamonaviy pedagogika, multimedia va axborot-kommunikasiya texnologiyalarini joriy etish” nomli ustuvor yo‘nalish doirasida bajarilgan (2020–2024-yy.).

**Tadqiqotning maqsadi** bolalarda alaliyani bartaraf etish bo‘yicha koreksion-logopedik ishlarini takomillashtirishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

motor alaliyasi bor bolalarda nutqni adekvat shakllantirishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlash;

motor alaliyasi bor bolalar bilan logopedik ish metodikasining mazmunini takomillashtirish;

motor alaliyasi bor bolalarda nutqni rivojlantirishning koreksion-logopedik texnologiyasini takomillashtirish;

maktabgacha yoshdagi bolalarda motor alaliyaning bartaraf etish innovatsion modelini takomillashtirish.

**Tadqiqotning ob'yekti** sifatida bolalarda alaliyani bartaraf etish bo'yicha korreksion-logopedik ishlarni takomillashtirish jarayoni bo'lib, tajribada Andijon 50-son, Farg'ona 55-son ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari va Toshkent shahar "Logos markaz" o'quv-logopedik markazining 209-nafar maktabgacha yoshdagi bolalari ishtirok etgan.

**Tadqiqotning predmetini** bolalarda alaliyani bartaraf etish bo'yicha korreksion-logopedik ishlarni takomillashtirishning shakl, metod va vositalari tashkil etadi;

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda psixologik-pedagogik adabiyotning nazariy tahlili, pedagogik kuzatish, sinov o'tkazish, qiyosiy tahlil, intervyu olish, test olish, so'rov o'tkazish, anketalash, matematik statistika usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

motor alaliyasi bor bolalarda nutqni adekvat shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari nutq tovushlarini kodlash va dekodlash jarayonlari, psixomotor va kognitiv rivojlanish, verbal assotsiatsiyalar ko'rinishidagi semantik maydonning yosh xususiyatlariga bog'liq lingvistik sezuvchanligiga ko'ra artikulyatsion praksis va sinkineziyaga didaktik-logoritmika orqali ta'sir etish asosida nutq markazlarining faollashuvi bilan bog'liqligi aniqlangan;

motor alaliyasi bor bolalar bilan logopedik ish metodikasining mazmuni tovush hosil bo'lishidagi fonematik tasavvurlar ta'sirida nutq boyligi, so'z va so'z birikmalarining mantiqiy tuzilmasini to'g'ri shakllantirish asosida fonetik-fonematik va leksik-grammatik nutq buzilishlarini psixik jarayonlarning rivojlanganligi orqali tuzatishda neyrologopedik yondashuvni qo'llashning didaktik maqsadlarini belgilashga ko'ra takomillashtirilgan;

motor alaliyasi bor bolalarda nutqni rivojlantirishning korreksion-logopedik texnologiyasi bolalardagi ekspressiv va impressiv nutqni assotsiatsiyalash, tovushlarni farqlash, sintaktik va so'z yasovchi morfemalarni nutq birikmalaridan ajratish ko'nikmasini shakllantirish muhimligi tufayli leksik, grammatik va fonetik nuqtai nazarni sensomotor xususiyatlarga neyrodidaktik o'yinlarni qo'llash orqali uyg'unlashtirish asosida takomillashtirilgan;

ilk bor maktabgacha yoshdagi bolalarda motor alaliyaning bartaraf etish modeli "Alfa-Balans" individual dasturi hamda DENS-terapiyani an'anaviy logopedik korreksiya yo'nalishlari bilan integrativ qo'llanilishi orqali nutq va psixofiziologik jarayonlarga neyropsixologik ta'sir darajasini lingvodidaktik maqsadlar orqali kiritish asosida takomillashtirilgan.

**Tadqiqotning amaliy ahamiyati** quyidagilardan iborat: maktabgacha yoshdagi bolalarda motor alaliyani bartaraf etishning takomillashtirilgan modeli ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etildi, bu esa korreksion-logopedik ish samaradorligini oshirishni ta'minladi. DENAS-terapiya, "Alfa-Balans" dasturi hamda kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda individual logopedik korreksiya dasturlari tayyorlandi. Bolalarning nutqiy, motor va psixofiziologik

faolligini rivojlantirishga qaratilgan diagnostik-korreksion kompleks va logopedlar uchun uslubiy tavsiyalar yaratildi.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

motor alaliyasi bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalar bilan olib boriladigan logopedik ish amaliyotiga joriy etildi. Tadqiqot asosida quyidagi amaliy ishlanmalar ishlab chiqildi va sinovdan o'tkazildi: motor alaliyani bartaraf etish bo'yicha takomillashtirilgan korreksion-pedagogik ish modeli; "Alfa-Balans" individual dasturi, DENS-terapiya va "Ko'ramiz, eshitamiz va gapiramiz" logopedik kompyuter dasturidan foydalangan holda logopedik korreksiya bo'yicha individual dasturlar; logopedlar va defektolog-pedagoglar uchun korreksion-rivojlantiruvchi faoliyatni tashkil etish bo'yicha uslubiy tavsiyalar. Tadqiqot natijalari nutq rivojlantirish markazlari, maxsus (korreksion) maktabgacha ta'lim muassasalari hamda logopediya va defektologiya yo'nalishida mutaxassis tayyorlash jarayonida amaliyotga tatbiq etilmoqda.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** tadqiqot natijalarining ishonchliligi nazariy va metodologik asoslanganligi, shuningdek maqsad va vazifalarga mos, bir-birini to'ldiruvchi metodlar majmuasidan foydalanish bilan ta'minlanadi. Ma'lumotlarning ishonchliligi tanlanmaning vakilliligi (209 nafar bola), natijalarni statistik tahlil qilish, hamda motor alaliyani bartaraf etishning takomillashtirilgan modelini tajriba-sinovdan o'tkazishdagi ijobiy natijalar bilan tasdiqlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati maktabgacha yoshdagi bolalarda motor alaliyani bartaraf etishning takomillashtirilgan modelini yaratish bilan belgilanadi. Model innovatsion va an'anaviy korreksion-pedagogik texnologiyalar integratsiyasiga asoslanadi. Tadqiqotning amaliy ahamiyati ushbu modelni logopedik amaliyotga joriy etish, individual korreksion dasturlar, diagnostik-korreksion materiallar va uslubiy tavsiyalarni ishlab chiqish bilan belgilanadi. Bu esa motor alaliyasi bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan korreksion-rivojlantiruvchi ish samaradorligini oshiradi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Alaliyli bolalarda nutq buzilishlarini o'rganish va bartaraf etish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalari asosida quyidagilar joriy qilidi:

motor alaliyasi bor bolalarda nutqni adekvat shakllantirishning pedagogik imkoniyatlarini nutq tovushlarini kodlash va dekodlash jarayonlari, psixomotor va kognitiv rivojlanish, verbal assotsiatsiyalar ko'rinishidagi semantik maydonning yosh xususiyatlariga bog'liq lingvistik senzitivligiga ko'ra artikulyasion praksis va sinkineziyaga didaktik-logoritmika orqali ta'sir etish asosida nutq markazlarini faollashishi bilan bog'liqligi asosida aniqlashga oid takliflar "Logopedik massaj" o'quv qo'llanmasi mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston milliy pedagogika universitetining 2025-yil 2-iyundagi 11-05-3631/04 raqamli ma'lumotnomasi). Natijada motor alaliyasi bo'lgan bolalarda nutqni shakllantirishning nazariy-metodologik asoslarini va mavjud korreksion yondashuvlarni tahlil qilingan;

motor alaliyasi bor bolalar bilan logopedik ish metodikasining mazmunini tovush hosil bo'lishidagi fonematik tasavvurlar ta'sirida nutq boyligi, so'z, so'z birikmalarining mantiqiy tuzilmasini to'g'ri shakllanishi asosida fonetik-fonematik

va leksik-grammatik nutq buzilishlarini psixik jarayonlarni rivojlanganligi orqali tuzatishda neyrolopedik yondashuvni qo'llashning didaktik maqsadlarini belgilashga ko'ra takomillashtirishga oid takliflar "Logopedik massaj" o'quv qo'llanmasi mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston milliy pedagogika universitetining 2025-yil 2-iyundagi 11-05-3631/04 raqamli ma'lumotnomasi). Natijada maktabgacha yoshdagi motor alaliyasi bo'lgan bolalarning psixologik-pedagogik va nutqiy rivojlanish xususiyatlarini o'rganishga erishilgan;

motor alaliyasi bor bolalarda nutqni rivojlantirishning korreksion-logopedik texnologiyasini bolalardagi ekspressiv va impressiv nutqni assotsiatsiyalash, tovushlarni farqlash, sintaktik va so'z yasovchi morfemalarni nutq birikmalaridan ajratish ko'nikmasini shakllantirish muhimligi tufayli leksik, grammatik, fonetik nuqtani sensomotor xususiyatlarga neyrodidaktik o'yinlarni qo'llashga ko'ra uyg'unlashtirishga oid takliflar "Logopedik massaj" o'quv qo'llanmasi mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston milliy pedagogika universitetining 2025-yil 2-iyundagi 11-05-3631/04 raqamli ma'lumotnomasi). Natijada motor alaliyasi bo'lgan bolalarda nutqni shakllantirish samaradorligi oshgan;

ilk bor maktabgacha yoshdagi bolalarda motor alaliyani bartaraf etish modelini "Alfa-Balans" individual dasturi hamda DENAS-terapiyani an'anaviy logopedik korreksiya yo'nalishlari bilan integrativ qo'llanilishiga ko'ra nutq va psixofiziologik jarayonlarga neyropsixologik ta'sir darajasini lingvodidaktik maqsadlar orqali kiritish asosida takomillashtirishga oid takliflar "Logopedik massaj" o'quv qo'llanmasi mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston milliy pedagogika universitetining 2025-yil 2-iyundagi 11-05-3631/04 raqamli ma'lumotnomasi). Natijada bolalarda alaliyani bartaraf etish bo'yicha korreksion logopedik ishning amaliy samaradorligi oshgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy ish tayyorlangan bo'lib, shundan Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarni chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, ulardan 2 tasi Respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uchta bob, umumiy xulosa, xulosalar, tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat, hajmi 150 -bet.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi bayon qilingan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, ob'yekti, predmeti, metodlari aniqlangan, tadqiqot ishining fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan. Shuningdek tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchligi, ilmiy va amaliy

ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy qilinishi, e'lon qilinganligi, ishning tuzilishiga doir ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Maktabgacha yoshdagi motor alaliyali bolalar nutqini shakllantirishning ilmiy nazariy, metodik asoslari”** deb nomlangan **birinchi** bobida motor alaliyali bolalar nutqini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlash va ontogenez davrida bolalarda nutq rivojlanishi haqida ma'lumot berilgan. Aqliy va shaxsiy rivojlanish darajasi izchil ifodalash qobiliyatlarini shakllantirishda namoyon bo'ladi. Kelajakdagi nutqning asoslari hayotning erta bosqichida, kattalar bilan muloqot jarayonida qo'yiladi. Ammo 4-5 yoshga kelib, nutq allaqachon batafsil va grammatik jihatdan to'g'ri bo'ladi. Ko'pgina tadqiqotchilar bolalarning nutq rivojlanishidagi bosqichlar sonini turli usullar bilan ajratadilar. Biz Leontiev nazariyasiga amal qilamiz, u bolalar nutqini shakllantirishda to'rt bosqichni belgilaydi: tayyorgarlik - bu bir yilgacha; maktabgacha ta'lim muassasasi - tilni boshlang'ich o'zlashtirish bosqichi jumla sharoitida - 3 yoshgacha; maktabgacha ta'lim muassasasi – izchil bayonnomani shakllantirish muddati – 7 yoshgacha; maktab – yozuvni shakllantirish va nutqning grammatik jihatdan takomillashtirilishi bosqichi. Alaliyali bolalar nutqini o'rganish va korreksiyalash muammosining joriy holati ochib berilgan, motor alaliyali va nutq buzilishining o'xshash holatlari mavjud bolalarning differensial tashhislash usullarining sharhi berilgan, alaliyali bolalar bilan korreksion-logopedik ishlarning hozirgi holati muhokama qilingan, tadqiqot muammosining yaqin va uzoq xorijda o'rganilganlik darajasi ilmiy-pedagogik yondashuv nuqtai nazaridan tahlil etilgan. Tushuncha mazmunini aniqlashtirish va alaliyali bolalar nutqi korreksiyalashda biz psixologiya, neyropsixologiya, lingvistika, fiziologiya, psixolingvistika sohalaridagi qator tadqiqotlarga tayandik. Motor alaliya tilga oid va tilga oid bo'lmagan buzilishlarning murakkab kompleksi sifatida ko'rib chiqildi. Muallifning ta'kidlashicha, aynan maktabgacha yoshda izchil nutq namoyon bo'ladi. A.R.Luria tufayli nutq shakllanishining yana bir psixolingvistik nuqtai nazari paydo bo'ldi. Muallifning ta'kidlashicha, har bir nutq aloqa vositasi yoki butun ifodalar tizimidir. Nutq odamlarning qo'shma faoliyatida, ijtimoiy hayotida, axborot almashishda, idrok, tarbiyada zarur bo'lgan muloqot turlaridan biri bo'lib, u insonni ma'naviy jihatdan boyitadi, san'at ob'ekti sifatida xizmat qiladi. Nutqni zamonaviy va to'liq o'zlashtirish bolada to'laqonli psixikani shakllantirish va uning to'g'ri rivojlanishining birinchi muhim shartidir. Zamonaviy vositalar bola tug'ilgandan keyingi dastlabki kunlardan boshlab boshlangan. Nutqni to'liq egallash uchun etarli miqdordagi til materiallari kerak. Bolani har bir yosh bosqichida o'z imkoniyatlari doirasida nutqni o'zlashtirishga rag'batlantirish. Bolaning dastlabki yoshdagi uyg'unlashgan nutqini rivojlantirishga e'tibor ayniqsa muhimdir, chunki ayni paytda bolaning miyasi jadal o'sib boradi va uning funksiyalari shakllanmoqda. Fiziologlar markaziy asab tizimining funksiyalarini tabiiy shakllanishi vaqtida o'rgatish osonligini bilishadi. Mashg'ulotlarsiz ushbu funksiyalarning rivojlanishi kechiktiriladi va hatto abadiy to'xtashi mumkin. Bolaning nutqi tashqi dunyo bilan aloqa qilishning uchta funksiyasini bajaradi: kommunikativ, kognitiv va tartibga soluvchi. Kommunikativ funksiya eng erta, hayotning to'qqizinchi-o'n ikkinchi oylarida modulyatsiyalangan babblingdan tug'ilgan bolaning birinchi so'zi

bu funksiyani bajaradi. Atrofdagi odamlar bilan muloqot qilish zarurati kelajakda bolaning nutqini yaxshilashga yordam beradi. Hayotning ikkinchi yilining boshida birinchi ma'noli so'zlar paydo bo'ladi, keyinchalik ular ob'ektlarni belgilash vazifasini bajara boshlaydi.

Hayotning uchinchi yilida nutqni tushunish, o'z faol nutqi tez rivojlanadi, so'z boyligi keskin o'sadi va nutqning rejalashtirish funksiyasining paydo bo'lishi murakkablashadi. Bu monologik, kontekstli shaklni oladi. Bolalar vizual materiallar bilan va vizual materiallarsiz turli xil izchil bayonotlarni o'zlashtiradilar. Hikoyalarning sintaktik tuzilishi murakkablashadi, murakkab va murakkab jumlar soni ko'payadi. Hayotning to'rtinchi yilida bolalar oddiy umumiy gapni o'zlashtiradilar. Hayotning beshinchi yilida bolalar nutqida topilgan murakkab jumlar soni jumalarning umumiy soniga nisbatan 11% ni tashkil qiladi. Ularning nutqida deyarli barcha quyi bandlarning mavjudligini qayd etaman (aniqlovchidan tashqari). Bu yoshda ular kattalarga (bolalar "nima uchun") juda ko'p savollar berishadi, o'z harakatlarini tushuntirishga harakat qilishadi (ovqatni quyib yuborishadi, chunki qushlar ovqatlanishni xohlashadi va hokazo) 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan davr - ona tilining grammatik tizimini assimilyatsiya qilish, uyg'unlashgan nutqning rivojlanishi. Ayni paytda nutqning grammatik tuzilishi va tovush tomoni yaxshilanadi, so'z boyitish uchun asoslar yaratiladi. Maktabgacha yoshdagi nutqning asosiy xususiyati - bu so'zlar rejasining paydo bo'lishi, ichki nutqning paydo bo'lishi. Nutq kontekstga aylanadi. Turli xil izchil bayonotlar mavjud bo'ladi: rivoyat, asosiy tavsif va qisman fikrlash. Bolaning dastlabki yoshdagi uyg'unlashgan nutqini rivojlantirishga e'tibor ayniqsa muhimdir, chunki ayni paytda bolaning miyasi jadal o'sib boradi va uning funksiyalari shakllanmoqda. Fiziologlar markaziy asab tizimining funksiyalarini tabiiy shakllanishi vaqtida o'rgatish osonligini bilishadi. Mashg'ulotlarsiz ushbu funksiyalarning rivojlanishi kechiktiriladi va hatto abadiy to'xtashi mumkin.

Bolaning nutqi tashqi dunyo bilan aloqa qilishning uchta funksiyasini bajaradi: kommunikativ, kognitiv va tartibga soluvchi. Kommunikativ funksiya eng erta, hayotning to'qqizinchi-o'n ikkinchi oylarida modulyatsiyalangan babblingdan tug'ilgan bolaning birinchi so'zi bu funksiyani bajaradi. Hikoyalarga didaktik materiallar asosida va qo'llab-quvvatlashsiz kirish mumkin. Struktura yanada murakkablashadi, nutqda murakkab konstruksiyalar, birikmalar va predloglar qo'llaniladi. Bola o'sib boradi, yetakchi faoliyati o'zgaradi, mustaqil va amaliy yo'nalishga ega bo'ladi, nutqga bo'lgan ehtiyoj oshadi. Bularning barchasidan monologik nutq shakli tarkibining asta-sekin murakkablashuvi kelib chiqadi. Bu kontekstli bo'ladi. Bu grammatik shakllarning chuqurroq assimilyatsiya qilinishi tufayli mavjud bo'ladi. Shunday qilib, ontogenezga mos keladigan rivojlanish bilan, patogen omillar tomonidan yuklanmagan, nutqning rivojlanishi "rejalashtirilgan stsenariy" ga muvofiq davom etadi. Bu holatda 6 yoshgacha bo'lgan bolalar keng so'z boyligiga ega, so'z shakllanishi va qo'zg'alish ko'nikmalaridan foydalanadilar. Bu yoshda tovushni to'g'ri talaffuz, ovozlarni tahlil qilish va sintezlashga tayyorlik shakllanadi. Uyg'unlashgan nutq rivojlanishning yetarli darajasida. Nutq - bu til yordamida muloqot - asrlar davomida silliqlangan va eng murakkab fikrning har qanday soyasini o'z ichiga olgan imo-ishora tizimi. Izchil nutq - bu semantik

kengaytirilgan bayonot, odamlarning muloqoti va o‘zaro tushunishini ta’minlaydigan yagona semantik va tarkibiy butunni ifodalovchi mantiqiy birlashtirilgan iboralar to‘plami. Nutqning ikki shaklini ajratish mumkin: monologik nutq va dialogik nutq. Nutqning monologik shakli dialogikdan ko‘ra murakkabroq, chunki u ma’lumotni yetkazish uchun maxsus ishlab chiqilgan. Biz monologni tavsif, rivoyat va elementar fikrlashda kuzatishimiz mumkin. Nutq izchil, izchil va mantiqiy va semantik tashkilotga ega bo‘lishi kerak. Psixologik, pedagogik, psixolingvistik adabiyotlarda nutq faoliyati haqida juda ko‘p gapiriladi.

Bolalar nutqini rivojlantirish maktabgacha ta’lim tarbiyachisining asosiy vazifalaridan biri bo‘lib, bu vazifani har bir darsda hal qilish lozim. Bolalar nutqini o‘rganish va tuzatish muammosining hozirgi holati maktabgacha ta’lim muassasasi o‘qituvchisining asosiy vazifalaridan biri va bu vazifani har bir darsda hal qilish kerak. Alaliya bilan og‘rigan bolalarning nutqini o‘rganish va tuzatish muammosining hozirgi holati, vosita alaliya va shu kabi nutq buzilishi bo‘lgan bolalarda differentsial tashxislash usullari umumiy ma’lumoti keltirilgan, alaliya bo‘lgan bolalar bilan tuzatuvchi logotip-terapiya ishlarining hozirgi holati muhokama etilgan, yaqin va uzoq xorijdagi mamlakatlarda tadqiqot muammosini ilmiy-pedagogik yondashuv nuqtai nazaridan o‘rganish tahlili keltirilgan. Alaliyali bolalarda kontsepsiyaning mazmunini aniqlashtirish va nutqni tuzatishda biz psixologiya, neyropsixologiya, tilshunoslik, fiziologiya va psixolingvistika sohasidagi bir qator tadqiqotlarga tayandik.

R.Raychev, S.Pentsheva, W.Rainov, M.Valtsheva, S.Bojinovlar yuqori miya funksiyasini kompleks va ko‘p aspektli jihatlarini tadqiq etishgan. Ritm-gnozis va praxis, asosan, motor alaliyali bolalarda oqsashni aniqlashgan. Ye.Kats fikriga ko‘ra, psixolingvistik nuqtai nazardan harakat allyuziyasi ekspressiv nutq buzilishlariga kiradi va bu serebral tuzilmalarning nutq tizimining shakllanishi yakunlanmagan davrdagi disfunktsiyasi tufayli kelib chiqadi. Nutq buzilishining bu shakli til birliklari tizimi assimilyatsiyasining turg‘un buzilishi bilan xarakterlanuvchi til nuqsoni sifatida ko‘rib chiqiladi.

V.K.Vorobyova, V.A.Kovshikov, R.Ye.Levina, Ye.M.Mastyukova, N.N.Traugott, O.N. Usanova, S.N. Shaxovskayalar yuqori psixik funksiyalar nuqsonining tilga oid bo‘lmagan buzilishlariga (ko‘rish, xotira, diqqat va b.) umumiy va kichik motorika nuqsonlarini kiritishadi. Keyinchalik alaliyada ekspressiv nutq rivojini G.V.Guroves, V.A.Kovshikov, R.Ye.Levina, V.K.Orfinskaya, Ye.F.Sobotovich, O.N.Usanovalar tadqiq etishgan. V.K.Vorobyova V.A.Kovshikov M.Brila, Ye.F.Sobotovichlar motor alaliyali bolalar nutqini leksik jihatdan shakllantirish masalalarini o‘rganishgan. Tadqiqotchilar nutqning leksik tomondan shakllanish jarayonini belgilarning semantik maydonini so‘zlar orasidagi aloqalarning turlari asosida tuzishga asoslangan murakkab tizimli jarayon sifatida ko‘rib chiqadilar. Bu tomondan “leksik tizimlilik” nutqning leksik tomonini o‘zaro bog‘liq birliklar tizimi sifatidagi shakllantirish aspektini aniqroq aks ettiradi.

Respublikamizda ontogenezda nutqni egallash muammolari, nutqning to‘liq rivojlanmaganligining turli aspektlarini Z.M.Axmedova, M.Yu.Ayupova,

Ye.Babayeva, V.Veretennikova, L.R.Mo‘minova, X.M.Po‘latova,  
N.X.Rahmonqulova, Sh.E. Toxtiyorovlar keng tadqiq etishgan.

Dissertatsiyada nutq muammosi bo‘lgan bolalarda korreksiya ishlari erta boshlanishi alalik bolalar nutqining rivojlanishi va shakllanishi uchun maktabgacha yosh qulay hisoblanishi, bolaning maktabda keyingi ta‘lim olishi uchun maxsus maktabgacha ta‘lim muassasasining nutqi to‘la rivojlanmagan guruhida ish qanchalik samarali olib borilishiga bog‘liqligi aniqlangan, nutq buzilishi yosh bolalarda shaxsiyatining eng faol shakllanishi davrida yuzaga keladi va bolaning ko‘plab shaxsiy xususiyatlarini rivojlanishiga yanada to‘sqinlik qiladi, uning ijtimoiy moslashuvini murakablashtiradi hamda alaliya turli xil murakkab nutq buzilishi, bunda bolalar nutq tizimining tovush va semantik tomoni bilan bog‘liq bo‘lgan barcha tarkibiy qismlarini normal eshitish va aql bilan shakllantirishning buzilishi ham aniqlangan.

Dissertatsiyaning **ikkinchi bobi “Maktabgacha yoshdagi bolalarda alaliyani bartaraf etish uchun logopedik ishining innovatsion texnologiyasi”** deb ataladi va motor alaliyali bolalarning og‘zaki nutqi holatini tadqiq etish metodikasiga bag‘ishlangan va uning natijalari keltirilgan. Aniqlash tadqiqoti 2019 – 2022 yillarda o‘tkazilgan va u ikki bosqichda amalga oshirilgan. Xususiyl nodavlat logopedik markazining bolalarida logopedik tekshirish o‘tkazilgan. Maqsad – motor alaliyali bolalarni o‘rganish. Logopedik tekshirishda Toshkent shahridagi “Logos Markaz” o‘quv-logopedik markazining bolalari, Andijon 50-son, Farg‘ona 55-son ko‘p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta‘lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari - jami 209 nafar bolalar ishtirok etishdi. Ulardan 186 nafar alaliyali bola Toshkent shahridan, 23 nafar – Andijon va Farg‘ona viloyatlaridan. Tadqiqotning navbatdagi bosqichida nutq buzilishlari batafsil o‘rganilgan va 209 nafar alaliyali bolalar aniqlangan.

Aniqlash eksperimentining metodikasi ishlab chiqilgan bo‘lib, u alaliyada kompleks logopedik tekshirish metodikasi quyidagi tamoyillar hisobga olinib ishlab chiqildi: tizimlilik tamoyili, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv tamoyili, komplekslilik, faoliyat, psixik jarayonlarning nutqiy buzilishlari aloqasi, umumdidaktik tamoyillar. Alaliyali bolalarni logopedik tekshirish ikki bosqichda amalga oshirildi va har bir bosqichda har bir yo‘nalish bo‘yicha bir necha topshiriq ishlab chiqildi. Birinchi bosqichda umumiy logopedik tekshirish o‘tkazildi. Bosqichning maqsadi ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta‘lim tashkilotlaridagi tarbiyalanuvchilar orasida nutq buzilishlarini o‘rganish va tahlil qilishga yo‘naltirilgan. Logopedik skriningli tekshirishda ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta‘lim tashkiloti tarbiyalanuvchilari ishtirok etishdi. Tekshirishning ikkinchi bosqichi birlamchi tekshirishda aniqlangan, nutqida fonetik-fonematik, leksik-grammatik buzilishlar mavjud bolalarda nutq nuqsonlarini sifat tahlil qilishga va uning asosida nutq buzilishlari xususiyatlari o‘rganildi. Aniqlash eksperimenti uchun fonetik nutq, nutq rivojlanishining fonetik-fonematik va tilning leksik-grammatik vositalari buzilishlarini kengaytirilgan logopedik tekshirish metodikasi ishlab chiqildi. Nutqni tekshirish metodikasi o‘zbek va rus tillari xususiyatlari hisobga olinib ishlab chiqilgan. Bunda nutq kamchiliklari, psixik jarayonlarning psixolingvistik nazariya bilan bog‘liq tuzilma va tizimliliigi ko‘p bosqichlilikining

butunligi va ajralmasligi hisobga olingan. Tekshirish uchun syujetli yoki predmetli suratlar seriyasi yoki to'plami material sifatida tanlab olingan. Logopedik tekshirish quyidagi oltita yo'nalish bo'yicha o'tkazilgan:

artikulyatsion apparatning qurilishi va vazifalari; nutqda nafas olish va tovush; tovush talafuzi; passiv va aktiv lug'atni tekshirish; nutqning grammatik qurilishini tekshirish; bog'langan nutqni tekshirish; kommunikativ ko'nikmalarni tekshirish. Logopedik tekshirish metodikasi har bir yo'nalish bo'yicha, aniqlash eksperimenti natijalari, asosan, dissertatsiya matnida keltirilgan.

Alaliyali bolalar nutqining fonetik-fonematik va leksik-grammatik qurilishini logopedik tekshirish natijalariga ko'ra, past daraja 156 ta bolada (74,4%), o'rta daraja 37 ta bolada (17,7%), yaxshi daraja 16 nafar bolada (7,6%) aniqlandi. Bolalarning tibbiy hujjatlarini o'rganish shuni ko'rsatdiki, alaliyali 209 nafar bolalarda perinatal ensefalopatiya, uzoq davomli tug'ilish davri, homila gipoksiyasi, miya minimal disfunktsiyasi, nefropatiya, asfiksiya, onada bakterial infeksiya kabi tashhislar mavjudligi aniqlandi. Ushbu bosqichda bolalarning tibbiy kartalari, ota-onalar va pedagog xodimlar bilan o'tkazilgan suhbatlar asosida anamnestik ma'lumotlar to'plandi va tahlil qilindi. Aniqlash tadqiqotining navbatdagi bosqichida artikulyatsiya apparati va uning vazifalari, nutqda nafas olish va tovush, tilning leksik-grammatik vositalarida logopedik tekshiruv o'tkazilgan. Natijalar tahlili bolalarda motor alaliyani bartaraf qilish uchun innovatsion kompleks logopedik ish modelini tuzish imkonini berdi. Biz tomonimizdan ishlab chiqilgan maktabgacha yoshdagi bolalar bilan o'tkazilgan tuzatish logopedik pedagogik eksperimenti modeli quyidagi bloklardan iborat bo'ldi:

Maqsadli blok: Motor alaliyasi bo'lgan bolalarda nutqni shakllantirish maqsadlari, vazifalari, usullari, tamoyillari va vositalarini o'z ichiga oladi.


Tashkiliy-uslubiy blok: Nutqida og'ir buzilishlariga ega bo'lgan bolalar bilan korreksion-logopedik ishining, aynan motor alaliyali bolalar bilan zamonaviy ilmiy asoslangan yondashuvlar hisobga olinib shakillanadi. Har bir yondashuv korreksion jarayonning strategiyasi, maqsadlarini, tamoyillarini belgillaydi va uning samaradorligini, yaxlitligini va gummanistik yonalishini ta'minlaydi, strategik va taktik tamoyillarini o'z ichiga oladi. Tizimli, faoliyat, maqsadli, kompleks, farqlovchi, kognitiv-neyropsixologik, texnologik, inklyuziv yondashuv.

Diagnostik blokning maqsadi nutq vositalarini, artikulyator nutq apparatlarining holatini va funksiyasini tekshirishdan iborat edi: periferik, nafas olish, ovoz apparatlari. Motor qobiliyatlarini tekshirish: nozik, yalpi va ularning funksiyalari. Nutqning leksik-grammatik va fonetik-fonematik tuzilishini o'rganish. Eksperiment natijalariga ko'ra nutqning rivojlanish darajasi mezonlari ishlab chiqish: yuqori, o'rtacha, past.

Korreksion blok: "Ilk qadam" dasturi asosida ishlab chiqilgan individual tuzatish-eksperimental dastur, diagnostika natijalari, bolaning nutq rivojlanishining uch darajasi (yuqori, o'rta, past) va motor xususiyatlarini belgilab beradi. O'quv yo'llari bilan to'g'rilash-logopedik, individual, o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish 3 bosqichda Farg'ona va Andijon viloyatlarida, Toshkent shahrida "Logos" nodavlat markazida maxsus maktabgacha ta'lim muassasalarida amalga oshirildi. Alaliyani bartaraf etish uchun individual tuzatish nutq terapiyasi mashg'ulotlari

haftasiga uch marta har bir bola bilan o'tkazildi, o'quv yili oxirida alaliya bo'lgan har bir bola 114 individual darslarga qatnashdi. Umuman, yiliga bitta bola bilan alaliyani bartaraf etish uchun logopedik nutq terapiyasi texnologiyasi uch bosqichda olib borildi, bolalarning umumiy soni 186 nafar tashkil etdi.

Monitoring blok - o'quv tajribasi natijalari modelda yuqori, o'rta va past ko'rinishda taqdim etiladi. Nutq rivojlanishining past darajasidan nutq rivojlanishining yuqori darajasiga o'tishni belgilaydigan o'ziga xos muntazamliklar ham aniqlandi. O'quv eksperimenti o'tkazilgandan so'ng, ishlab chiqilgan mezonlarga muvofiq vosita alaliyani bartaraf etish natijalari kuzatish.



## **1-rasm. Motor alaliyani bartaraf etish uchun logopedik ishining innovatsion texnologiyasi modeli**

Uchinchi bob “**Bolalarda motor alaliyani bartaraf etish uchun korreksion logopedik ishlarining samaradorligi**” deb ataladi. Unda motor alaliyali bolalar nutqini logopedik korreksiyalash bo‘yicha ta’lim eksperimentini tashkil etish, o‘tkazish va natijalarini tahlil etish masalalari yoritilgan. Maxsus ishlab chiqilgan metodika asosidagi eksperimentda 1, 2, 3-darajali alaliya tashhisi qo‘yilgan 186 nafar bola va Farg‘ona va Andijondagi ko‘p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta’lim tashkilotidan an’anaviy metodika asosida logopedik guruhlarda tarbiyalanayotgan 23 nafar nutqi nuqsonli bola ishtirok etdi. Eksperiment boshida barcha respondentlar nutq nuqsonlari darajasiga ko‘ra teng bo‘lgan eksperimental va nazorat guruhlariga bo‘lindi. Eksperimental va nazorat guruhlarida alaliya tashhisi qo‘yilgan bolalarning boshlang‘ich darajasi tengligi Pirson (xi-kvadrat) mezoni bo‘yicha tekshirildi. 2019 yildan 2022 yilgacha davom etgan tadqiqotimizni o‘tkazish uchun nazorat (n=82) va eksperimental (n=127) guruhlarini shakllantirishda bolalardagi nevrologik tashhislar hisobga olindi. Biz markaziy nerv tizimining perinatal zararlanishi, psixik nutq rivojlanishidagi kechikishlar, motor alaliya, sensor alaliya, sensomotor alaliya tashhisli bolalarni tanlab oldik. Bolalarda alaliyani bartaraf etish uchun biz taklif qilayotgan korreksion-logopedik ish kompleksi juda samarali hisoblanadi va u quyidagilarni o‘z ichiga oladi: farmakologik davolash, denas-terapiya, “alfa-balans” individual dasturi, logopedik massaj, logoped bilan o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar, nazfas olish mashqlari, biologik faol nuqtalar bo‘yicha massaj, neyropsixologik korreksiya. Eksperimentda 209 nafar bola ishtirok etdi. Alaliya, psixik nutq rivojlanishida kechikish tashhisli qo‘yilgan maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ish olib borilganda kompleks ish usuli qo‘llanildi va turli innovatsion texnologiyalardan foydalanildi. 2019 yildan 2022 yilgacha o‘tgan 3 yillik tadqiqot ishlari davomida yaxshi natijalar olindi, logopedik ishga kompleks yondashuv qo‘llanildi. Bu - farmakologik davolash, denas-terapiya, “alfa-balans” individual dasturi, logopedik massaj va logoped bilan o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar. Bolalar logopedik mashg‘ulotlarda 2 yil davomida haftasiga 3 marta ishtirok etishdi. Alaliyali 209 nafar boladan 149 nafari (72%) yaxshi nutqqa ega bo‘lishdi, 43 nafar bola (21%) nutqi ancha yaxshilandi. Biz foydalangan kompleks yondashuv izchil shakllantirildi. Bolalar bilan o‘tkazilgan logopedik mashg‘ulotlar biz ishlab chiqqan individual dastur bo‘yicha o‘tkazildi. Mashg‘ulotlar haftasiga 3 marta tashkil etildi. Besh oylik “alfa-balans”, individual dasturi bo‘yicha mashg‘ulotlar, denas-stimulyatsiya, biologik faol nuqtalar bo‘yicha massaj, neyropsixologik korreksiyadan so‘ng bolalar hulqi va nutqida katta o‘zgarishlar qayd etildi.

Eksperimentdan so‘ng alaliya tashhisi qo‘yilgan bolalar darajasini tekshirishning yakuniy natijalari dissertasiyada keltirilgan.

Tekshirish natijalariga ko'ra, eksperimental va nazorat guruhlarida bolalarning nutqiy rivojlanishi darajasi aniqlandi va u 1-jadval va 2-jadval keltirilgan.

**1- jadval**


**Alaliyali bolalarning nutqiy rivojlanishi darajasi (eksperimentgacha)**

darajalar	kriteriylar	Eksperimental guruh			Nazorat guruh		
		soni		127	soni		82
		Baland	O'rta	Past	Baland	O'rta	Past
Eksperiment boshida	Leksika	62	39	26	40	28	14
	Grammtika	60	37	30	39	27	16
	Fonetika	64	37	26	41	26	15
	Umumiy orta'	62	38	27	40	27	15

**2- jadval**

**Alaliyali bolalarning nutqiy rivojlanishi darajasi (eksperimentdan so'ng)**

darajalar	kriteriylar	Eksperimental guruh			Nazorat guruh		
		soni		127	soni		82
		Baland	O'rta	Past	Baland	O'rta	Past
Eksperimentdan so'ng	Leksika	103	19	5	46	24	12
	Grammtika	101	20	6	47	23	12
	Fonetika	102	20	5	48	22	12
	Umumiy orta'	102	20	5	47	23	12



**2-rasm. Alaliya tashhisli bolalarning nutqiy rivojlanish darajasi (eksperimentga qadar va ekasperimentdan so`ng)**

2 rasmdan ko`rinib turganidek, eksperimental guruhlarda eksperimentga qadar yaxshi va o`rta daraja ko`rsatkichlari 79% ni, eksperiment o`tkazilgandan so`ng 96% ni (o`sish 17%) tashkil etgan. Nazorat guruhlarida esa eksperimentga qadar yaxshi va o`rta daraja ko`rsatkichlar 82%, eksperiment o`tkazilgandan so`ng 85% ni (o`sish 3%) tashkil etgan.

Kompleks yondashuv qo`llanilgan individual logopedik ishni amalga oshirish bo`yicha pedagogik eksperiment jarayonida eksperimental va nazorat guruhi bolalari o`rtasida nutqiy rivojlanish ko`rsatkichlari bo`yicha birinchi guruh foydasiga katta farq aniqlandi. Eksperimental guruhda rivojlanish ko`rsatkichlari nazorat guruhidagi natijalardan 14% baland. Mazkur tadqiqot ta`lim munosabatlaridagi barcha ishtirokchilarining hamkorligi, alaliyali bolalarda nutq nuqsonlarini bartaraf etishni ta`minlovchi vosita va shart-sharoitlar tizimi, logopedning diagnostik, korreksion-rivojlantiruvchi, axborot-ma`rifiy, konsultativ faoliyatining o`zaro bog`liq yo`nalishlari unumdorligini nazarda tutuvchi korreksion-rivojlantiruvchi ish tizimi samaradorligini ko`rsatib beradi.

## XULOSA

1. O`tkazilgan tadqiqot maktabgacha yoshdagi motor alaliyaga ega bo`lgan bolalarda nutqni shakllantirish bo`yicha korreksion-rivojlantiruvchi ishlarning innovatsion texnologiyasini nazariy asoslash va tajriba-sinov yo`li bilan tasdiqlash imkonini berdi.

2. Psixologo-pedagogik va neyrolingvistik adabiyotlarni tahlil qilish asosida motor alaliyada nutqning rivojlanishdagi o`ziga xos xususiyatlari aniqlab berildi.

3. Aniqlanishicha, nutq buzilishlari nutq faoliyatining motor mexanizmlarining yetarli shakllanmaganligi bilan bog`liq. «Ko`ramiz. Eshitamiz. Gapiramiz» kompyuter dasturi, «Alfa-Balans» individual dasturi, DENAS-terapiya

hamda an'anaviy logopedik usullarni o'z ichiga olgan innovatsion korreksion-logopedik model ishlab chiqildi.

4.Tajriba-sinov ishlarining natijalari mazkur modelning samaradorligini tasdiqladi: bolalarda fonematik idrok, artikulyatsion motorika, leksik-grammatik tuzilma va bog'langan nutqning rivojlanishi kuzatildi.

5.Tadqiqotning ilmiy ahamiyati motor alaliyada nutqni shakllantirishning nazariy asoslarini aniqlashtirish hamda korreksion yordamning yangi yondashuvlarini asoslab berishda namoyon bo'ladi.

6.Amaliy ahamiyati – taklif etilgan texnologiyani logopedlar va maktabgacha ta'lim muassasalari pedagoglari faoliyatida qo'llash imkoniyatidadir.

7.Olingan natijalar innovatsion texnologiyani motor alaliyaga ega bolalar bilan olib boriladigan korreksion-logopedik ishlar amaliyotiga joriy etishning maqsadga muvofiqligini tasdiqlaydi.

### **TAVSIYALAR:**

1. Korreksion-logopedik ish nevropatolog, psixolog, neyropsixolog, psixofiziolog, logoped, defektolog, osteopat va boshqa mutaxassislar jamoasi bilan kompleks tarzda amalga oshirish.

2. Tibbiy davolash miya tuzilmalarining yetilishini tezlashtirish va bola bilan logopedik ish olib borishni yengillashtirishning nevroitik ko'rinishlarni barataraf etish.

3. Logopedik-korreksion ish nutqiy faoliyat mexanizmlarini yaratishga yo'naltiriladi – motiv, kommunikativ maqsad shakllantiriladi, passiv lug'at, ifodaning ichki dasturi, uning leksik ko'rinishi tuziladi, leksik-grammatik vositalar tanlanadi, grammatik tuzilma shakllantirish.

---

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ  
DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01 ПРИ НАЦИОНАЛЬНОМ  
ПЕДАГОГИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ УЗБЕКИСТАНА**

---

**НАЦИОНАЛЬНЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ  
УЗБЕКИСТАНА**

**КАРИМОВА ШОИРА ТУРСУНОВНА**

**КОРРЕКЦИОННО-ЛОГОПЕДИЧЕСКАЯ РАБОТА ПО  
ПРЕОДОЛЕНИЮ АЛАЛИИ У ДЕТЕЙ**

**13.00.03 – Специальная педагогика**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ НА СОИСКАНИЕ УЧЕНОЙ  
СТЕПЕНИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО ПЕДАГОГИЧЕСКИМ  
НАУКАМ**

**Ташкент – 2025**

**Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии Республики Узбекистан за номером B2020.2.PhD/Ped 1691.**

Диссертация выполнена в Национальном педагогическом университете Узбекистана.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекском, русском и английском языках (резюме)) на веб-сайте Научного совета ([www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)) и информационно-образовательном портале «Ziyonet» ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)).

**Научный руководитель:**

**Муминова Лола Рахимовна**

доктор педагогических наук, профессор

**Официальные оппоненты:**

**Хакимова Мухаббат Файзиевна**

доктор педагогических наук, профессор

**Тургунбаев Сирожиддин Фахриддинович**

доктор философии по педагогическим наукам (PhD), доцент

**Ведущая организация:**

**Кокандский государственный университет**

Защита диссертации состоится «\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2025 года в \_\_\_ часов на заседании научного совета DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01 при Национальном педагогическом университете Узбекистана (Адрес: 100185, г. Ташкент, Чиланзарский район, ул. Бунедкор, 27. Тел.: (+99871) 276-82-32; факс: (+99871) 276-76-51; э-mail: [tdpu\\_kengash@edu.uz](mailto:tdpu_kengash@edu.uz)).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Национального педагогического университета Узбекистана (зарегистрирована за № \_\_\_\_\_). Адрес: 100185, г. Ташкент, Чиланзарский район, ул. Бунедкор, 27. Тел.: (+99871) 276-82-32.

Автореферат диссертации разослан «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2025 года.  
(Протокол реестра № \_\_\_\_\_ от «\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2025 г.).

**З.Н.Мамаражабова**

Председатель Научного совета по  
присуждению ученых степеней,  
д.п.н., профессор

**Р.Г.Исянов**

секретарь Ученого совета по  
присуждению ученых степеней,  
к.п.н., доцент

**М.Э.Мамаражабов**

Председатель научного семинара при  
Научном совете по присуждению  
ученых степеней, д.п.н., профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора наук (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы исследования.** В мире большое внимание уделяется образованию детей с недоразвитием речи, создаются необходимые условия и внедряются современные образовательные технологии. Международная концепция инклюзивного образования представляет собой глобальный подход к образованию, основанный на принципах равенства, доступности и уважения к многообразию. Её цель — обеспечить качественное образование всем обучающимся, независимо от их физических, ментальных, социальных, языковых, культурных или других особенностей. В Конвенции ООН о правах инвалидов (2006) в статье 24 закрепляется право людей с инвалидностью на инклюзивное образование на всех уровнях без дискриминации.

В мировых образовательных и научно-исследовательских учреждениях успешно проводятся научные исследования по развитию несформированной речи у детей, характеризующейся аллюзией движения, устойчивым нарушением ассимиляции экспрессивной речи. Особое внимание уделяется исследованиям по выявлению нарушений речи, распространения, этиологии и классификации алалии, а также по организации практической диагностики и методики с учетом языковых особенностей образовательных программ.

В последние годы в нашей республике создаются нормативные основы совершенствования организационно-методических аспектов развития специального и инклюзивного дошкольного образования. Определены приоритетные задачи по созданию условий для интеллектуального, морального, эстетического и физического развития детей, внедрению в систему дошкольного образования инноваций, передовых педагогических и информационно-коммуникационных технологий. В результате расширены педагогические возможности устранения нарушений речи в детях дошкольного возраста.

Настоящее диссертационное исследование в определенной степени служит решению задач, намеченных в указах Президента Республики Узбекистан №УП-5270 О мерах по кардинальному совершенствованию системы государственной поддержки лиц с инвалидностью от 1 декабря 2017 года, №Уп-5712 Об утверждении Концепции развития системы народного образования Республики Узбекистан до 2030 года от 29 апреля 2019 года, №УП-5618 О коренном совершенствовании системы повышения правосознания и правовой культуры в обществе от 9 января 2019 года, постановлении Президента Республики Узбекистан №ПП-4860 О мерах по утверждении нормативно-правовых актов об обучении детей с особыми образовательными потребностями от 12 октября 2021 года, также в других нормативно-правовых документах, касающихся данной сферы деятельности.

**Соответствие исследования с приоритетными направлениями развития науки и технологий республики.** Данная исследовательская работа выполнена в соответствии с направлением I. «Формирование системы инновационных идей и пути их реализации в социальном, экономическом,

культурном, духовно-просветительском развитии информатизированного общества и демократического государства”.

